

Sog'liqni saqlash vazirining
2023 yil "27" dekabrda
03-38/30101-sonli Topshiriq xatiga
2-ilova

O'QUV DASTUR PASPORTI

Ta'lim muassasasi nomi	TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI		
Kafedra/ bo'lim	"O'quv markazi"		
O'quv dastur nomi	“Umumiy neyroxirurgiya”		
O'qish turi	umumiy malaka oshirish kursi o‘quv dasturi		
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Sh. M. Kariev, D. S. Murodova, I.R. Alimov, I.A.Yugay, R. B. Xazratkulov		
Tsiklining umumiy soati	144 kredit		
 Shuhrat Maratovich Kariyev t.f.d., professor, kafedra mudiri  Dilorom Subxonovna Murodova PhD, dotsent Neyroxirurgiya kafedrasining o'quv bo'limi mudiri  Ijod Rustamovich Alimov- PhD, dotsent			
 Igor Aleksandrovich Yugay tibbiyot fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim  Rustam Bafoyevich Hazratqulov tibbiyot fanlari doktori, professor			
Maqsad	Tinglovchilarning neyroxirurgiya sohasi haqidagi bilimlarini oshirish, nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish, soxadagi yangi		

	tekshirish usullari va zamonaviy davolash algoritmi tanlash kompetentsiyalarini yangilashga qaratilgan.
Tsiklga taklif qilingan mutaxassislar kontingenti	Viloyat va shahar kasalxonalari, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar, tibbiy davlat va nodavlat muassasalari shifokorlari, nevrolog, vertebrolog, travmatolog-ortoped, jarrox va onkojarrohlik kabi tor mutaxassislik shifokorlari uchun mo'ljallangan.
Dastur vazifalari	- Neyroxirurgiya sohasi va uning rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarini yangilash; Sohaga oid yangiliklar va dolzabr muammolarning amaliy yechimlarini takomillashtirish. - Bosh miya jarohatlarini zamonaviy tashhisot va davolash usullari haqida bilimlarini oshirish va amaliyotga tatbiq qilish. - Bosh miya o'smalarini zamonaviy tashhisot usullari haqida bilimlarini oshirish. - Umurtqa pog'onasi va orqa miya kasalliklarida zamonaviy davolash usullari chuqurlashtirish. - Orqa miya o'smalarida klinik kechish xususiyatlari, zamonaviy operativ yondashuvlar haqidagi nazariy va amaliy bilimlarini oshirish.
Modullar	Neyroxirurgiya sohasida zamonaviy tashxisot va davolashning yangi usullari haqida bilimga ega bo'lishi. • Zamonaviy neyrovizualizatsiya usullarni ahamiyati haqida nazariy va amaliy bilimlari takomillashadi. • Bosh miya jaroxatlarini differentsial tashhislash va zamonaviy davolash usullari haqida nazariy va amaliy bilimlari takomillashadi. • Umurtqa pog'onasi va orqa miya patologiyasida zamonaviy tekshirish usullari, DT-traktografiya usullari amaliyotdagi ahamiyati, zamonaviy xirurgik amaliyotlari haqida bilimlarining takomillashuvi erishiladi. • Bosh miya o'smalari xirurgiyasi asoslari, tekshirish usullari va davolash turlari, davolash taktikasini malakaviy bilimlari takomillashadi. • Kraniosinostoz kasallikni dunyodagi yetuq neyroxirurgik klinikalarda davolash usullari va amaliyotlar haqida yangi ma'lumotlar bilan nazariy va amaliy bilimlari takomillashadi. • Gidrotsefaliyaning bolalarda kechish xususiyatlarini va operativ ko'rsatmalar, zamonaviy shuntlash amaliyotni keng qo'llashga ega bo'ladi. • Bolalarda bosh miya falajida zamonaviy jarrohlik amaliyotlari (selektiv rizotomiya, pallidotomiya va h.k.), hamda paralichlarni spastik shaklida botulin toksinni qo'llash natijalari haqida yangillagan ma'lumotlarga ega bo'ladi.
O'qish bazalari	
<u>NeurON Medical Centre</u>	



O'quv-davolash asbob-uskunalari va jarayoni

